

**ME'DA YARASI KASALLIKLARIDA ORGANIZMDA SITOKINLAR
TIZIMIDAGI PATOGENETIK O'ZGARISHLAR VA ULARNI O'RGANISH**

Komilova Nargiza Shokirovna

Terapiya mutaxassisligi 1-bosqich magistranti

Urganch davlat tibbiyot instituti, Urganch, O'zbekiston

Dolzarbligi. Me'da yarasi kasalligi ovqat hazm qilish tizimining eng keng tarqalgan surunkali kasalliklaridan biri bo'lib, uning rivojlanishida *Helicobacter pylori* infeksiyasi, nerv-endokrin tizim faoliyatining buzilishi, noto'g'ri ovqatlanish, stress omillari va immun tizimdagi o'zgarishlar muhim ahamiyat kasb etadi. So'nggi yillarda kasallik patogenezida immun-yallig'lanish mexanizmlarining o'rni tobora ko'proq o'rganilmoqda. Ayniqsa, sitokinlar tizimidagi o'zgarishlar me'da shilliq qavatida yallig'lanish, destruksiya va regeneratsiya jarayonlarini boshqaruvchi asosiy omillardan biri sifatida qaralmoqda. Proinflamator sitokinlar (IL-1 β , IL-6, IL-8 va TNF- α) miqdorining oshishi yallig'lanish jarayonlarining faollashishiga va yara defektining chuqurlashishiga olib keladi. Aksincha, antiinflamator sitokinlar (IL-4 va IL-10) organizmning himoya mexanizmlarini qo'llab-quvvatlab, regeneratsiya jarayonlarini rag'batlantiradi. Shu sababli sitokinlar tizimidagi patogenetik o'zgarishlarni o'rganish me'da yarasi kasalligining rivojlanish mexanizmlarini aniqlash, diagnostika va davolash samaradorligini oshirishda muhim ilmiy-amaliy ahamiyatga ega.

Tadqiqot maqsadi. Me'da yarasi kasalligi bilan og'rikan bemorlarda sitokinlar tizimidagi o'zgarishlarni aniqlash, ularning kasallikning klinik kechishi va og'irlik darajasi bilan bog'liqligini baholash hamda sitokinnarning diagnostik va prognostik ahamiyatini asoslash.

Materiallar va metodlar. Tadqiqot Xorazm viloyati ko'p tarmoqli tibbiyot markazi gastroenterologiya bo'limida olib borildi. Tadqiqotga 120 nafar me'da yarasi kasalligi bilan og'rikan bemor va 30 nafar amaliy sog'lom shaxs jalb qilindi. Bemorlar *Helicobacter pylori* infeksiyasi mavjudligiga qarab ikki guruhga bo'lindi: birinchi guruhni *H. pylori* musbat bo'lgan 80 nafar bemor, ikkinchi guruhni *H. pylori* manfiy bo'lgan 40 nafar bemor tashkil etdi. Nazorat guruhiga oshqozon-ichak tizimi kasalliklari kuzatilmagan sog'lom ko'ngillilar kiritildi. Barcha bemorlarda umumiy

**FAN, TA'LIM, TEXNOLOGIYA VA ISHLAB CHIQRISH
INTEGRATSIYASI ASOSIDA RIVOJLANISH ISTIQBOLLARI
RESPUBLIKA ILMIY-AMALIY KONFERENSIYASI
VOLUME-3, ISSUE-05**

klirik tekshiruvlar, fibrogastroduodenoskopiya, ureaza testi, nafas testi va morfologik tekshiruvlar o'tkazildi. Qon zardobida IL-1 β , IL-6, IL-8, TNF- α , IL-4 va IL-10 sitokinlari immunoferment tahlil (ELISA) usuli yordamida aniqlandi. Olingan natijalarga statistik ishlov berishda Student t-testi, korrelyatsion tahlil va dispersion tahlil usullaridan foydalanildi.

Natijalar. Tadqiqot natijalariga ko'ra, me'da yarasi kasalligi bilan og'riqan bemorlarda proinflamator sitokinlar – IL-1 β , IL-6, IL-8 va TNF- α darajalari nazorat guruhiga nisbatan sezilarli darajada yuqori ekanligi aniqlandi. Ayniqsa *Helicobacter pylori* musbat bemorlarda ushbu ko'rsatkichlar yanada yuqori bo'lib, me'da shilliq qavatidagi yallig'lanish jarayonining faolligi bilan chambarchas bog'liq ekanligi kuzatildi. Shu bilan birga antiinflamator sitokinlar – IL-4 va IL-10 darajalarining pasayishi qayd etildi. Sitokinlar disbalansi yara defektining kattaligi, chuqurligi va kasallikning klinik og'irligi bilan musbat korrelyatsiyaga ega bo'ldi. Davolashdan so'ng proinflamator sitokinlar darajasining pasayishi va antiinflamator sitokinlar ko'rsatkichlarining ortishi kuzatildi, bu esa yallig'lanish jarayonining susayganligini ko'rsatdi.

Xulosalar. Me'da yarasi kasalligi rivojlanishida sitokinlar tizimidagi o'zgarishlar muhim patogenetik ahamiyatga ega. Proinflamator sitokinlar miqdorining ortishi va antiinflamator sitokinlar darajasining pasayishi kasallikning og'ir kechishi hamda yara jarayonining chuqurlashishi bilan bog'liqdir. Sitokinlar profilini aniqlash me'da yarasi kasalligining faolligini baholash, davolash samaradorligini monitoring qilish va kasallik qaytalanish xavfini prognozlashda muhim laborator mezon sifatida qo'llanilishi mumkin.